

ANOMAL YUQORI KUCHLANISH HOSIL BO'LISHIDA

QARSHILIKNING AXAMIYATI

Yuldashev Shohjahon Abrorovich

Farg'ona davlat universiteti

Shohjahon6566@mail.ru

Tel: 97.215-65-66

Annotatsiya: Bir jinsli bo'limgan yarimo'tkazgich yupqa pardalaridagi p-n o'tishli supper ko'p qatlamliliklar, AFK-strukturalarning ekvivalent sxemasi tuzilib, volt-amper bog'lanish uchun analitik ifoda topildi. Unga asosan volt-amper bog'lanishlardagi dastlabki chiziqli soha ekvivalent sxemadagi, yarimo'tkazgich hajmiy sohasi bilan bog'liq shunt qarshilikka bog'liq bo'ladi.

Kalit so'zlar: Super ko'p qatlam, mikroelektronika, optoelektronika, xalkogenid, anizotrop bug'latish, bir jinsli bo'limgan.

Mikroelektronika va optoelektronikada ishlatilayotgan generator tipidagi foto qabul qilgichlarning xususiyatlarini va imkoniyatlarini bilish uchun generator tipidagi foto qabul qilgichlarning negizini tashkil etuvchi AFK elementlarning xarakteristikalarini o'rghanish kerak. AFK-effekt tabiatiga bag'ishlangan ishlarining [1] ko'pchiligida takidlanishicha, effektning anomalligi yarimo'tkazgich taqiqlangan zonasini kengligidan katta fotokuchlanish generatsiyasi bilan bog'liq. Bir jinsli yarimo'tkazgichlarda yorug'lik oqimining istalgan qiymatlarida fotodiffuzion fotokuchlanish


$$U = \frac{kT}{q} \cdot \frac{b-1}{b+1} \ln \frac{n_1}{n_0} \ll E_g \quad (1)$$

bir jinsli bo'limgan yarimo'tkazgichning p-n o'tishlaridagi eng yuqori fotokuchlanish esa

$$U = \frac{kT}{q} \cdot \ln \frac{n_n p_p}{n_i^2} \leq E_g \quad (2)$$

Секция «Нетрадиционные источники энергии и их использование»

bo‘ladi. Har ikkala bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan holatlarda ham asosiy element sifatida kuchlanish ifodasida kT/q qatnashadi. Bunga asoslanib hamda zona nazariyasi negizida AFK tabiatidagi anomallik uchun mikro fotobatareya konsepsiysi rivojlantirilib, uning nazariyasi shakllantirilgan. Lekin ba’zi ishlardagi nazariy tahlillarda bahsli xulosalar va ifodalar mavjud [2.3]. Bu bahsli holatlarga oydinlik kiritish maqsadida AFK-effekt xarakteristikalari eksperimental tadqiq qilindi.




1-rasm. Nazariy VAXning dastlabki chiziqli qismi (1), nazary VAXning nochiziqli qismlari (2,3)

AFK-effekt volt–amper bog‘lanishlari. AFK-effekt tabiatiga doir har xil qarashlar mavjud, ular ichida mikrofotobatareya konsepsiysi negizida AFK-effektning qariyb hamma xarakteristikalarini aniq tushuntirish mumkin. Bunga asosan AFK elementlar murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u ketma-ket joylashgan juda ko‘p sondagi mikroskopik sohalardan tashkil topadi. Har bir soha alohida mikrofotoelement vazifasini o‘taydi. Anomal yuqori fotokuchlanish, element yoritilganda har bir mikrofotoelementda hosil bo‘lgan kT/q tartibidagi elementar

Секция «Нетрадиционные источники энергии и их использование»

fotokuchlanishlarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. AFK element yagona texnologik siklda yarimo'tkazgich materialni termik bug'latib, dielektrik taglikka anizatrop o'tqazish jarayonida hosil bo'ladi. AFK elementlardagi volt – amper bog'lanishlarini nazariy va eksperimental jihatdan o'rghanish AFK elementiga doir juda ko'p "xoslik" xususiyatlarga oydinlik kiritadi. AFK elementi uchun volt–amper bog'lanishining analitik ifodasini topish maqsadida fotodiодлар uchun umumlashtirilgan modeli negizida AFK elementi uchun fizik model shakllantirilib, uning ekvivalent sxemasi yaratilgan [4]. Topilgan volt–amper bog'lanishning tahliliga asosan, bog'lanish grafigida asosan uchta soha kuzatiladi: dastlabki past kuchlanishli soha chiziqli qism; undan so'nggi kuchlanishning ortishi tokning tezroq ortishini ko'rsatuvchi nochizig'iy soha; va uchinchi chiziqli sohani hosil qiladi (1-rasm). Uning grafigi quyidagicha bo'ladi:



2-rasm. Eksperimental volt–amper bog'lanishlar (CdS , PbS namunalar uchun)

Nazariy volt–amper xarakteristikasida kuzatilgan grafik qismlarini tajribada topish maqsadida sulfid, selenid birikmalaridan namuna yupqa pardalari tayyorlab, kuchli elektr maydonining keng intervalida volt–amper bog'lanish tekshirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tajribada olingan volt–amper bog'lanishlarda dastlabki chiziqlilik $0 - 4 \cdot 10^2 B/cm$ elektr maydonlarigacha saqlandi. Unda so'nggi

Секция «Нетрадиционные источники энергии и их использование»

nochiziqlilik nazariy natijalari mos kelib, tajribada o‘ta katta maydonlarda ham kuzatiladi (2–rasm). AFK–effekt sohasidagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar [5], bir jinsli bo‘lmagan yarimo‘tkazgich yupqa pardalaridagi p–n o‘tishli supper ko‘p qatlamliliklar nazariyasining rivojlanishiga sabab bo‘ldi [6]. AFK–strukturalarning ekvivalent sxemasi tuzilib, volt–amper bog‘lanish uchun analitik ifoda topildi. Unga asosan volt–amper bog‘lanishlardagi dastlabki chiziqli soha ekvivalent sxemadagi, yarimo‘tkazgich hajmiy sohasi bilan bog‘liq shunt(parallel) qarshilik bilan bog‘liq. Volt–amper bog‘lanshining dastlabki chiziqlilik sohasining burchak koefitsientidan AFK–element yupqa pardalarning qarshiligi (R_T) aniqlandi. Uning qiymati $10^{10} \div 10^{14} \text{ Om}$ tartibida bo‘lgan. Demak, anomal yuqori kuchlanish faqat katta qarshilikli namunalarda kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Онаркулов, К. Э., Нурдинова, Р. А., Юлдашев, Ш. А., & Юлдашев, А. А. (2022). Разработка теплопреобразователя на основе аномального фотовольтаического эффекта.
2. Egamberdievich, O. K., Abrorovich, Y. S., Abduvositovich, Y. A., & Qizi, Y. S. A. (2022). Determination of Microparameters of Halcogenide Thin Movies. *Journal of Optoelectronics Laser*, 41(5), 523-530.
3. Onarkulov, K., Yuldashev, S., & Yuldashev, A. (2022). ФОТОМАГНИТНЫЙ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЬ. *Science and innovation*, 1(A4), 47-51.
4. Yuldashev, S. (2022). ХАЛЬКОГЕНИД ЮПҚА ПАРДАЛАРИДА АФК-ЭФФЕКТ. *Science and innovation*, 1(A6), 530-535.
5. Онаркулов, К., & Юлдашев, А. (2023). ГЕЛИООПТРОННЫЙ ИСТОЧНИК НАПРЯЖЕНИЯ. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (8), 30-34.
6. Yuldashev, A. (2022). OPTOTRANSFORMER. *Science and Innovation*, 1(7), 876-882.
7. Юлдашев, Ш. А. (2023, November). ИССЛЕДОВАНИЕ ЭФФЕКТА АФН В НЕОДНОРОДНЫХ ТОНКИХ ПЛЕНКАХ. In *Fergana state university conference* (pp. 283-286).
8. Onarqulov, K., & Yuldasheva, S. (2023, November). XALKOGENID BIR JINSLI BO‘LMAGAN YUPQA PARDALARIDA AFME-EFFEKTNI O‘RGANISH. In *Fergana state university conference* (pp. 64-64).

OPTIONAL TRANSITION MECHANISMS AND THEIR REVERSE AND LIGHT CHARACTERISTICS IN HETEROSEXUAL FUNCTIONS

Kholdorov Mukhammadkarim, Mamirjonova Gulnoza

FarDU basic doctoral student, Master of Fergana State University

xoldorov8668@mail.ru